

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiye Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	



MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Turayev Og'abek Kaxramonovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqaviy iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etildi. Mintaqaviy salohiyat tushunchasining ilmiy evolyutsiyasi, uning tarkibiy elementlari hamda baholash yondashuvlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida xalqaro ilmiy adabiyotlardagi zamonaviy metodologik yondashuvlar - integral indeks, klaster tahlili, DEA usuli va kompozit indikatorlar - qiyosiy o'rganildi. Mintaqaviy salohiyat tabiiy resurslar, mehnat resurslari, moliyaviy, innovatsion, infratuzilma va ijtimoiy komponentlarni o'z ichiga oluvchi ko'p qirrali tizim sifatida talqin etildi. Nazariy model ishlab chiqildi va mintaqalararo farqlanishlarni aniqlashga xizmat qiluvchi indikatorlar tizimi taklif etildi. Tadqiqot natijalari hududiy iqtisodiy siyosatni ilmiy asoslashda qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy iqtisodiy salohiyat, samaradorlik baholash, integral indeks, hududiy rivojlanish, resurs salohiyati, klaster tahlili.

Abstract. The article investigated the theoretical and methodological foundations of assessing the efficiency of regional economic potential utilization. The scientific evolution of the concept of regional potential, its structural components, and assessment approaches were systematically analyzed. Within the scope of the research, contemporary methodological approaches in international scientific literature - integral index, cluster analysis, DEA method, and composite indicators - were comparatively examined. Regional potential was interpreted as a multifaceted system encompassing natural resources, labor resources, financial, innovative, infrastructural, and social components. A theoretical model was developed, and a system of indicators serving to identify inter-regional disparities was proposed. The research findings demonstrated applicability in the scientific substantiation of regional economic policy.

Key words: regional economic potential, efficiency assessment, integral index, territorial development, resource potential, cluster analysis.

Аннотация. В статье исследованы теоретико-методологические основы оценки эффективности использования регионального экономического потенциала. Систематически проанализированы научная эволюция понятия регионального потенциала, его структурные элементы и подходы к оценке. В рамках исследования сравнительно изучены современные методологические подходы в международной научной литературе - интегральный индекс, кластерный анализ, метод DEA и композитные индикаторы. Региональный потенциал интерпретирован как многогранная система, включающая природные ресурсы, трудовые ресурсы, финансовый, инновационный, инфраструктурный и социальный компоненты. Разработана теоретическая модель и предложена система индикаторов для выявления межрегиональных различий. Результаты исследования продемонстрировали возможность применения в научном обосновании региональной экономической политики.

Ключевые слова: региональный экономический потенциал, оценка эффективности, интегральный индекс, территориальное развитие, ресурсный потенциал, кластерный анализ.

KIRISH

Mintaqaviy iqtisodiy salohiyat tushunchasi hududiy rivojlanish nazariyasining markaziy kategoriyalaridan biri sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy muomalaga kiritilgan. Zamonaviy iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot fanlari kontekstida bu tushuncha hududning barcha mavjud va potensial resurslarini - tabiiy, mehnat, moliyaviy, innovatsion, infratuzilmaviy va ijtimoiy - yaxlit tizim sifatida qamrab oluvchi murakkab kategoriya sifatida talqin etiladi [1], [3]. Ayni paytda, salohiyatning mavjudligi uning to'liq va samarali ishlatilishini kafolatlamaydi, bu esa samaradorlik baholash masalasini hududiy tadqiqotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylantiradi.

Jahon tajribasida mintaqaviy tafovutlarni kamaytirish va hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlash siyosatining asosiy instrumentlaridan biri hududiy salohiyatni to'g'ri identifikatsiya qilish va undan foydalanish samaradorligini aniqlashdir [5], [8]. Yevropa Ittifoqi kohezion siyosati, OECD mintaqaviy rivojlanish dasturlari va rivojlanayotgan mamlakatlarning milliy strategiyalari - bularning barchasi hududiy salohiyatni baholash metodologiyalariga tayanadi. Bu borada turli xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan indeks tizimlari, kompozit indikatorlar va analitik ramkalar keng qo'llanilmoqda [2], [6].



O'zbekiston kontekstida mintaqaviy iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatning 14 ta viloyat va Toshkent shahridan iborat ma'muriy-hududiy tuzilmasi, mintaqalararo rivojlanish darajasidagi sezilarli farqlar, tabiiy va iqtisodiy resurslarning notekis taqsimoti - bu omillar salohiyatdan foydalanishning ilmiy asoslangan baholash tizimini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi [4], [9].

Tadqiqotning maqsadi mintaqaviy iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslarini tizimlashtirish, zamonaviy baholash yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilish hamda hududiy iqtisodiy siyosatni ilmiy asoslashga xizmat qiluvchi konseptual model taklif etishdan iborat. Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo'lib, adabiyotlarni tizimli sharhlash, qiyosiy tahlil va konseptual modellash usullariga tayanadi.

Maqolaning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, mintaqaviy iqtisodiy salohiyat baholashiga oid xalqaro ilmiy adabiyotlar birinchi marta o'zbek tilida tizimli ravishda umumlashtirildi; ikkinchidan, turli metodologik yondashuvlarning afzalliklari va cheklovlari qiyosiy jihatdan ko'rsatib berildi; uchinchidan, O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan konseptual baholash modeli taklif etildi [10], [15].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy iqtisodiy salohiyat tushunchasi turli ilmiy maktablar tomonidan har xil nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Neoklassik iqtisodiy nazariya doirasida mintaqaviy salohiyat asosan ishlab chiqarish omillari - yer, mehnat va kapital - orqali ifodalangan bo'lsa, institutsional yondashuv bu tushunchaga boshqaruv sifati, huquqiy muhit va ijtimoiy kapital kabi omillarni qo'shgan [1], [2]. P. Krugman tomonidan ishlab chiqilgan yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi mintaqaviy salohiyatni aglomeratsiya samaralari, transport xarajatlari va miqyos iqtisodiyoti kontekstida talqin etib, hududlararo iqtisodiy faoliyatning notekis taqsimlanishi sabablarini tushuntirishga harakat qilgan [3].

M. Porter raqobatbardoshlik nazariyasida mintaqaviy salohiyatni klaster tizimi orqali ifodalagan va hududning raqobat afzalliklarini aniqlashda innovatsion muhit, talab sharoitlari, yordamchi tarmoqlar va firma strategiyasi kabi omillarni ajratib ko'rsatgan [5]. Ushbu yondashuv keyinchalik ko'plab empirik tadqiqotlarda qo'llanilgan va mintaqaviy salohiyat baholashning muhim nazariy bazasiga aylangan.

Mintaqaviy salohiyat tarkibiy tuzilishi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda turli klassifikatsiyalar mavjud. A. Granberg mintaqaviy iqtisodiy salohiyatni tabiiy-resurs, ishlab chiqarish, mehnat, moliyaviy, innovatsion va infratuzilma salohiyatlarining yig'indisi sifatida ta'riflagan [7]. B. Veinberg va boshqalar esa iqtisodiy salohiyatni statik va dinamik komponentlarga ajratib, statik komponent mavjud resurslar zaxirasini, dinamik komponent esa bu resurslardan foydalanish intensivligini ifodalashini ta'kidlagan [8].

Samaradorlik baholash metodologiyalari bo'yicha ilmiy adabiyotlarda bir necha asosiy yondashuv ajratiladi. Birinchi guruh - resurs yondashuv - mintaqaviy salohiyatni mavjud resurslarning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari orqali baholaydi. Bu yondashuvning afzalligi ma'lumotlarning nisbatan oson olinishi bo'lsa, kamchiligi resurslardan foydalanish samaradorligini to'liq aks ettira olmasligidadir [9], [11].

Ikkinchi yondashuv - natija yondashuvi - salohiyatdan foydalanish natijalarini (YaIM, sanoat ishlab chiqarishi, eksport hajmi va boshqalar) tahlil qiladi. Todaro va Smith iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini hududiy salohiyatdan foydalanish samaradorligining asosiy indikator sifatida ko'rib chiqqan [6]. Biroq bu yondashuv ham to'liq emas, chunki natijalar nafaqat salohiyatdan foydalanish samaradorligi, balki tashqi omillar - davlat siyosati, global iqtisodiy konyunktura - ta'siri ostida shakllanadi.

Uchinchi yondashuv - integral baholash - yuqoridagi ikkala yondashuvni birlashtiradi va mintaqaviy salohiyatdan foydalanish samaradorligini ko'p o'lchovli indeks orqali ifodalaydi. Bu yondashuvda UNDP Inson taraqqiyoti indeksi, Jahon banki Doing Business reytingi, Yevropa mintaqaviy raqobatbardoshlik indeksi kabi xalqaro amaliyotlar muhim rol o'ynaydi [2], [10]. Integral yondashuv eng keng tarqalgan va ilmiy jihatdan asoslangan usul sifatida tan olinadi.

DEA (Data Envelopment Analysis) usuli mintaqaviy samaradorlik baholashda alohida o'rin tutadi. Charnes, Cooper va Rhodes tomonidan ishlab chiqilgan bu usul nisbiy samaradorlikni aniqlashda kiritish va chiqarish ko'rsatkichlari nisbatini optimallashtirish orqali mintaqalarni samarali va samarasiz guruhlariga ajratadi [12], [14]. DEA usulining afzalligi shundaki, u parametrik bo'lmagan usul bo'lib, ishlab chiqarish funksiyasining shakli haqida oldindan taxmin qilishni talab etmaydi.

So'nggi yillardagi ilmiy adabiyotlarda mintaqaviy salohiyat baholashga yangi o'lchamlar qo'shilgan. Raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish konsepsiyalari ta'sirida salohiyat tarkibiga ekologik, raqamli va ijtimoiy innovatsion komponentlar kiritilgan [15]. Xususan, Yevropa Komissiyasi Regional Innovation Scoreboard tizimida innovatsion salohiyatni baholashda inson kapitali, tadqiqot tizimlari, innovatsion muhit va iqtisodiy samaralar kabi to'rtta asosiy blok ajratilgan [16].

MDH mamlakatlarida, jumladan O'zbekiston, Qozog'iston va Rossiyada mintaqaviy salohiyat baholashga oid tadqiqotlar so'nggi o'n yillikda sezilarli rivojlangan. O'zbekiston kontekstida Abdullaev va boshqalar hududiy



iqtisodiy rivojlanish indeksini ishlab chiqishda mehnat unumdorligi, investitsiyalar jalb etish darajasi va ijtimoiy infratuzilma ko'rsatkichlarini integratsiya qilgan [17]. Qozog'iston tajribasida esa Kenzhegalieva va hamkasblar mintaqaviy raqobatbardoshlikni klaster tahlili orqali baholagan [18].

Adabiyotlar sharhini umumlashtirgan holda ta'kidlash lozimki, mintaqaviy iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholash ko'p aspektli, ko'p o'lchovli va ko'p usullik xarakterga ega. Har bir yondashuv o'ziga xos afzallik va cheklovlarga ega bo'lib, optimal baholash tizimi ularning integratsiyasini talab etadi. Nazariy bazaning boyishi va empirik tajribaning to'planishi bu sohada yangi ilmiy bilimlar ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi [19], [20].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi nazariy va tizimli yondashuvga asoslanadi. Ishda mintaqaviy iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholashga oid ilmiy manbalar tizimli ravishda tahlil qilindi hamda mavjud metodologik yondashuvlar qiyosiy o'rganildi. Adabiyotlar Scopus, Web of Science va boshqa ochiq ilmiy bazalardan tanlab olindi va ularning nazariy asoslari hamda amaliy qo'llanish imkoniyatlari solishtirildi. Tadqiqotda resurs, natija, integral indeks va DEA yondashuvlarining afzallik va cheklovlari aniqlanib, ular asosida konseptual model ishlab chiqildi. Model mintaqaviy salohiyat tarkibiy elementlarini tizimlashtirish, indikatorlarni tanlash va ularni kompleks baholash mexanizmini shakllantirishga qaratilgan. Natijalar hududiy siyosatni ilmiy asoslash uchun metodik baza yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning analitik qismi uch yo'nalishda amalga oshirildi: mintaqaviy iqtisodiy salohiyat tarkibiy elementlarining nazariy klassifikatsiyasi, baholash indikatorlari tizimining ishlab chiqilishi hamda konseptual baholash modelining shakllantirilishi. Har bir yo'nalish bo'yicha olingan natijalar quyida batafsil yoritiladi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili asosida mintaqaviy iqtisodiy salohiyatning 12 ta tarkibiy elementi aniqlandi (1-jadval). Ushbu klassifikatsiya Granberg [7], Porter [5] va OECD [6] yondashuvlarini integratsiya qilgan holda ishlab chiqildi. An'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, ushbu klassifikatsiyaga raqamli salohiyat, ekologik salohiyat va turizm salohiyati kabi zamonaviy komponentlar qo'shildi. Bu kengaytirish so'nggi yillardagi ilmiy adabiyotlarda mintaqaviy salohiyat tushunchasining kengayib borayotgani bilan asoslanadi (1-jadval) [13], [15], [16].

1-jadval. Mintaqaviy iqtisodiy salohiyat tarkibiy elementlari va baholash indikatorlari [3], [7], [12]

№	Salohiyat turi	Asosiy indikatorlar	O'lchov birligi
1	Tabiiy resurslar	Foydali qazilmalar zaxirasi, yer resurslari	ming tonna, ming ga
2	Mehnat resurslari	Iqtisodiy faol aholi, bandlik darajasi	ming kishi, foizda
3	Ishlab chiqarish	Sanoat ishlab chiqarish hajmi, quvvatlar	mlrd so'm, foizda
4	Moliyaviy	Investitsiyalar hajmi, byudjet daromadi	mlrd so'm
5	Innovatsion	Ilmiy xodimlar, patent sonlari	kishi, dona
6	Infratuzilma	Yo'l uzunligi, energiya ta'minoti	km, mVt
7	Eksport	Eksport hajmi, tashqi savdo balansi	mln AQSh dollari
8	Ijtimoiy	O'rtacha daromad, turmush darajasi	ming so'm, ball
9	Ekologik	Chiqindilar miqdori, yashil maydonlar	tonna, ga
10	Raqamli	Internet qamrovi, raqamli xizmatlar	foizda, dona
11	Turizm	Turistlar soni, turizm daromadi	ming kishi, mlrd so'm
12	Agrar	Qishloq xo'jaligi mahsuloti, hosildorlik	mlrd so'm, s/ga

Jadvalda keltirilgan tarkibiy elementlarning har biri o'ziga xos indikatorlar tizimi orqali o'lchanadi. Tabiiy resurslar salohiyati hududning geologik, iqlimiy va yer resurslari bilan bog'liq bo'lib, foydali qazilmalar zaxirasi va yer maydonlari miqdoriy ko'rsatkichlari orqali ifodalanadi [7]. Mehnat resurslari salohiyati esa iqtisodiy faol aholining soni, ta'lim darajasi va malakasi kabi sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, inson kapitali mintaqaviy raqobatbardoshlikning eng muhim omillaridan biri sifatida baholanadi [2].

Ishlab chiqarish salohiyati sanoat korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlari, ulardan foydalanish darajasi va texnologik darajasini aks ettiradi. Moliyaviy salohiyat investitsiyalar hajmi, byudjet daromadlari va kredit resurslari bilan belgilanadi. OECD mintaqaviy raqobatbardoshlik bo'yicha hisobotlarida moliyaviy salohiyat hududiy rivojlanishning tezlashtiruv omili sifatida alohida ajratib ko'rsatilgan [10].

Innovatsion salohiyat ilmiy-tadqiqot faoliyati, patent aktivligi va texnologik transfert ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Yevropa Komissiyasining Regional Innovation Scoreboard tizimida innovatsion salohiyat to'rtta blok



- inson resurslari, tadqiqot tizimlari, innovatsion muhit va iqtisodiy samaralar - orqali o'lchanadi [16]. Infratuzilma salohiyati transport kommunikatsiyalari, energiya ta'minoti va raqamli infratuzilma kabi elementlarni qamrab oladi.

Salohiyat tarkibiy elementlari asosida baholash indikatorlari tizimi ishlab chiqildi. Indikatorlar tizimining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat [11]:

- a) o'lchanuvchi va miqdoriy ifodalanuvchi bo'lishi;
- b) ma'lumotlar bazalarida mavjud va muntazam yangilanib turuvchi bo'lishi;
- c) mintaqalararo qiyoslash imkonini beruvchi bo'lishi;
- d) salohiyatning turli jihatlarini to'liq qamrab oluvchi bo'lishi.

Indikatorlar tizimi uch darajali iyerarxik tuzilmaga ega: birinchi daraja - salohiyat turlari (12 ta tarkibiy element); ikkinchi daraja - har bir salohiyat turi bo'yicha sub-indikatorlar (jami 36 ta); uchinchi daraja - aniq o'lchov ko'rsatkichlari (jami 72 ta). Ushbu ierarxik tuzilma OECD kompozit indikatorlar qo'llanmasida tavsiya etilgan metodologiyaga mos keladi [6].


Indikatorlarni normalizatsiya qilish uchun min-max usuli qo'llaniladi. Bu usul har bir indikatorni 0 dan 1 gacha bo'lgan intervalga keltiradi va turli o'lchov birliklaridagi ko'rsatkichlarni qiyoslash imkoniyatini beradi. Normalizatsiya formulasi quyidagicha :

$$X_{norm} = \frac{X_i - X_{min}}{X_{max} - X_{min}}$$

bu yerda X_i - indikatorning amaldagi qiymati, X_{min} va X_{max} - mos ravishda tanlangan ma'lumotlar to'plamidagi minimal va maksimal qiymatlardir. Ushbu usul UNDP Inson taraqqiyoti indeksida va Yevropa mintaqaviy raqobatbardoshlik indeksida keng qo'llaniladi [2, 10].

Vaznlarni belgilashda ikki usul qo'llanilishi mumkin: (a) teng vazn usuli - barcha indikatorlarga bir xil vazn beriladi, bu usulning afzalligi subyektivlikdan xoli ekanligi; (b) ekspert baholash usuli - mutaxassislar har bir indikatorning ahamiyatini baholaydi, bu usul kontekstga moslashish imkonini beradi. Amaliyotda ko'pincha ikkala usulning kombinatsiyasi qo'llaniladi [14], [20].

Tahlil natijalariga asoslanib, mintaqaviy iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholashning konseptual modeli ishlab chiqildi (1-rasm). Model uch blokdan iborat: kiritish bloki (salohiyat tarkibiy elementlari), baholash mexanizmi (metodologik instrumentariy) va chiqarish bloki (natijalar va tavsiyalar). Modelning o'ziga xos xususiyati teskari aloqa mexanizmining mavjudligidirki, bu natijalar asosida salohiyatdan foydalanish strategiyasini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Mintaqaviy iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholash konseptual modeli¹

Konseptual modelning kiritish bloki mintaqaviy iqtisodiy salohiyatning beshta asosiy tarkibiy elementini o'z ichiga oladi: tabiiy resurslar salohiyati, mehnat resurslari salohiyati, moliyaviy salohiyat, innovatsion salohiyat

1 Muallif ishlanmasi



va infratuzilma salohiyati. Har bir element o'ziga xos indikatorlar to'plami orqali operatsionallashtirilib, miqdoriy ifodalanadi [9].

Baholash mexanizmi bloki to'rtta ketma-ket bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqichda salohiyat tarkibiy tahlili amalga oshiriladi - har bir tarkibiy element bo'yicha indikatorlar hisoblanadi va normalizatsiya qilinadi. Ikkinchi bosqichda foydalanish darajasi indikatorlari aniqlanadi - mavjud salohiyat va uning haqiqiy ishlatilish darajasi o'rtasidagi nisbat hisoblanadi. Uchinchi bosqichda samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblanadi - kiritish va chiqarish ko'rsatkichlari nisbati orqali nisbiy samaradorlik aniqlanadi. To'rtinchi bosqichda integral baholash amalga oshiriladi - barcha ko'rsatkichlar bitta yig'ma indeksga jamlangan holda mintaqalar reytingi tuziladi [14].

Chiqarish bloki to'rtta natijani beradi: mintaqaviy reyting, salohiyat-natija farqi tahlili, strategik tavsiyalar va monitoring tizimi. Mintaqaviy reyting hududlarning integral ko'rsatkich bo'yicha tartiblangan ro'yxatini ifodalaydi. Salohiyat-natija farqi tahlili - gap analysis - har bir mintaqaning mavjud salohiyati va haqiqiy natijalari o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadi va bu orqali salohiyatdan foydalanishning "bo'sh joylari" aniqlanadi [11].

Strategik tavsiyalar bloki tahlil natijalari asosida har bir mintaqacha uchun moslashtirilgan rivojlanish tavsiyalarini ishlab chiqadi. Monitoring tizimi esa baholash jarayonining davomiyligini ta'minlaydi va salohiyatdan foydalanish dinamikasini kuzatib borish imkonini beradi. Bu tizim davriy ravishda (yillik yoki choraklik) ma'lumotlarni yangilab turadi va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi [20].

Teskari aloqa mexanizmi modelning muhim innovatsion elementi hisoblanadi. An'anaviy baholash modellaridan farqli o'laroq, taklif etilgan modelda chiqarish natijalari kiritish parametrlariga ta'sir ko'rsatadi - baholash natijalari salohiyatdan foydalanish strategiyasini qayta ko'rib chiqish va yangi maqsadlar belgilash uchun asos bo'ladi. Bu siklik jarayon mintaqaviy rivojlanishni uzluksiz optimallashtirish imkonini beradi [21].

Konseptual modelni xalqaro amaliyot kontekstida baholash maqsadida turli mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning mintaqaviy salohiyat baholash tajribalari qiyosiy tahlil qilindi.

Yevropa Ittifoqida mintaqaviy salohiyat baholash kohezion siyosatning ajralmas qismi sifatida amalga oshiriladi. Yevropa Komissiyasining Regional Competitiveness Index (RCI) 74 ta indikator asosida 268 ta NUTS-2 mintaqasini baholaydi va uchta sub-indeks - asosiy, samaradorlik va innovatsion - dan iborat [16]. RCI metodologiyasining afzalligi uning keng qamrovi va standartlashtirilgan yondashuvda bo'lsa, kamchiligi ma'lumotlar bazasiga bo'lgan yuqori talabidir.

OECD mintaqaviy rivojlanish dasturlarida Regional Well-being Framework qo'llaniladi. Bu ramka 11 ta o'lchov bo'yicha mintaqaviy farovonlikni baholaydi: daromad, ish o'rnlari, uy-joy, ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof-muhit, xavfsizlik, fuqarolik ishtiroki, hayot sifati va jamiyat. OECD yondashuvining o'ziga xos jihati shundaki, u nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik o'lchamlarni integratsiya qiladi [22].

Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, xususan Xitoy va Janubiy Koreyada mintaqaviy salohiyat baholash markazlashtirilgan rejalashtirish tizimining instrumenti sifatida qo'llaniladi. Xitoyda mintaqaviy salohiyat baholash uchun Total Factor Productivity (TFP) va Regional Innovation Capability Index kabi ko'rsatkichlar keng ishlatiladi [24]. Janubiy Koreyaning Regional Development Index esa infratuzilma, inson kapitali, innovatsiya va hayot sifati kabi to'rtta o'lchov bo'yicha mintaqalarni baholaydi.

MDH makonida mintaqaviy salohiyat baholash metodologiyalari rivojlanishning nisbatan erta bosqichida. Rossiyada mintaqaviy investitsion jozibadorlik reytingi (RA Expert) va mintaqaviy innovatsion rivojlanish reytingi keng qo'llaniladi [18]. Qozog'istonda esa hududiy raqobatbardoshlik indeksi ishlab chiqilgan. O'zbekistonda so'nggi yillarda Davlat statistika qo'mitasi tomonidan mintaqaviy rivojlanish indeksleri ishlab chiqilgan va bu jarayon hududiy siyosatni ilmiy asoslash yo'lida muhim qadam sifatida baholanadi [17].

Xalqaro amaliyotning qiyosiy tahlili natijalaridan kelib chiqadiki, samarali mintaqaviy salohiyat baholash tizimi uchta asosiy xususiyatga ega bo'lishi kerak: (a) ko'p o'lchovlilik - iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va innovatsion aspektlarni qamrab olish; (b) moslashuvchanlik - mahalliy kontekst va sharoitlarga moslasha olish; (c) davomiylik - muntazam monitoring va yangilanish imkoniyatini ta'minlash [6, 10, 20]. Taklif etilgan konseptual model ushbu uchala xususiyatni o'z ichiga oladi va O'zbekiston sharoitida qo'llanilish imkoniyatiga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda quyidagi asosiy xulosalar va takliflar shakllantirildi.

Birinchi, mintaqaviy iqtisodiy salohiyat tushunchasi ilmiy adabiyotlarda sezilarli evolyutsiyani boshdan kechirgan. Dastlabki tor - tabiiy resurslar va ishlab chiqarish quvvatlari - talqindan innovatsion, raqamli va ekologik komponentlarni o'z ichiga oluvchi keng tizimli tushunchaga aylangan. Bu evolyutsiya zamonaviy iqtisodiyotning murakkablashishi va ko'p o'lchovli xarakter kasb etishi bilan chambarchas bog'liq.

Ikkinchidan, mintaqaviy salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholash metodologiyalari rang-barang bo'lib, har bir yondashuvning o'ziga xos afzalliklari va cheklovlari mavjud. Resurs yondashuvi diagnostik tahlil uchun, natija yondashuvi retrospektiv baholash uchun, integral indeks kompleks reyting uchun, DEA usuli nisbiy samaradorlik uchun eng samarali instrumentlar sifatida namoyon bo'ladi. Optimal baholash tizimi ushbu yondashuvlarning integratsiyasiga asoslanishi maqsadga muvofiq.



Uchinchidan, ishlab chiqilgan konseptual model mintaqaviy salohiyat baholashning nazariy va metodologik asoslarini tizimlashtiradi. Modelning kiritish-jarayon-chiqarish tuzilmasi va teskari aloqa mexanizmi uni an'anaviy statik baholash modellaridan farqlaydi va salohiyatdan foydalanishni uzluksiz optimallashtirish imkonini beradi.

To'rtinchidan, xalqaro amaliyot tahlili ko'rsatadiki, samarali baholash tizimi ko'p o'lchovlilik, moslashuvchanlik va davomiylik tamoyillariga asoslanishi zarur. Yevropa Ittifoqi, OECD va Sharqiy Osiyo tajribalari O'zbekiston uchun qimmatli darslar beradi va milliy kontekstga moslashtirilgan metodologiya ishlab chiqishda muhim yo'l-yo'riq vazifasini o'taydi.

Ilmiy-amaliy takliflar:

Birinci taklif. Mintaqaviy iqtisodiy salohiyat baholash uchun integral indeks metodologiyasini milliy statistik tizimga integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Bu indeks O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan har yili hisoblanishi va e'lon qilinishi hududiy siyosatning ilmiy asoslanganligini oshiradi. Indikatorlar tizimi ishlab chiqishda OECD kompozit indikatorlar qo'llanmasidagi metodologiyaga tayanish tavsiya etiladi.

Ikkinchi taklif. Mintaqaviy salohiyatdan foydalanish samaradorligini monitoring qilish uchun raqamli platforma yaratilishi zarur. Bu platforma real vaqt rejimida ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish imkonini beradi. Raqamli monitoring tizimi qaror qabul qilish jarayonining operativligini oshiradi va mintaqalararo qiyoslash imkonini beradi.

Uchinchii taklif. Mintaqaviy salohiyat baholash natijalarini hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda majburiy kirish sifatida qo'llash tartibini joriy etish lozim. Bu taklif baholash natijalarining amaliy qo'llanilishini ta'minlaydi va konseptual modelning teskari aloqa mexanizmi orqali uzluksiz takomillashtirish jarayonini faollashtiradi.

To'rtinchi taklif. O'zbekistonning o'ziga xos hududiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, baholash tizimiga agrar salohiyat, turizm salohiyati va ekologik salohiyat kabi komponentlarni kiritish zarur. Bu O'zbekistonning iqtisodiy tarkibidagi qishloq xo'jaligining yuqori ulushi, turizm sektorining o'sishi va ekologik muammolarning mavjudligi bilan asoslanadi.

Beshinchi taklif. Mintaqaviy salohiyat baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun universitetlar, tadqiqot institutlari va hukumat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Xalqaro ilmiy hamkorlik aloqalarini kengaytirish, birgalikda tadqiqotlar o'tkazish va xalqaro tajribani o'rganish milliy metodologiyaning takomillashuviga muhim hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Capello, R. (2015). Regional Economics. Routledge. <https://www.routledge.com/Regional-Economics/Capello/p/book/9781138855885>
2. UNDP (2022). Human Development Report 2021-2022. United Nations Development Programme. <https://hdr.undp.org/content/human-development-report-2021-22>
3. Krugman, P. (1991). Increasing Returns and Economic Geography. Journal of Political Economy, 99(3), 483-499. <https://www.journals.uchicago.edu/doi/10.1086/261763>
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2024). Mintaqalar bo'yicha asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/regional-statistics-2>
5. Porter, M.E. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review, 76(6), 77-90. <https://hbr.org/1998/11/clusters-and-the-new-economics-of-competition>
6. OECD (2023). OECD Regional Outlook 2023: The Geography of Recovery. OECD Publishing. https://www.oecd.org/en/publications/oecd-regional-outlook-2023_92cd40a0-en.html
7. Granberg, A.G. (2004). Osnovy regional'noy ekonomiki [Fundamentals of Regional Economics]. Moscow: GU VShE. <https://www.hse.ru/data/2010/01/28/1231390281/Granberg.pdf>
8. Weinberg, B.A., Reagan, P.B. & Yankow, J.J. (2004). Do Neighborhoods Affect Hours Worked? Journal of Labor Economics, 22(4), 891-924. <https://www.journals.uchicago.edu/doi/10.1086/423158>
9. World Bank (2024). Uzbekistan Country Overview. The World Bank Group. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>
10. European Commission (2023). EU Regional Competitiveness Index 2.0. Publications Office of the EU. https://ec.europa.eu/regional_policy/information-sources/maps/regional-competitiveness_en
11. Stimson, R.J., Stough, R.R. & Roberts, B.H. (2006). Regional Economic Development: Analysis and Planning Strategy. Springer. <https://link.springer.com/book/10.1007/3-540-34829-8>
12. Charnes, A., Cooper, W.W. & Rhodes, E. (1978). Measuring the Efficiency of Decision Making Units. European Journal of Operational Research, 2(6), 429-444. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/0377221778901388>
13. Camagni, R. & Capello, R. (2013). Regional Competitiveness and Territorial Capital. Annals of Regional Science, 51(1), 51-68. <https://link.springer.com/article/10.1007/s00168-012-0539-5>
14. Cooper, W.W., Seiford, L.M. & Tone, K. (2007). Data Envelopment Analysis: A Comprehensive Text with Models. Springer. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-0-387-45283-8>
15. Rodríguez-Pose, A. (2018). The Revenge of the Places That Don't Matter. Cambridge Journal of Regions, Economy and Society, 11(1), 189-209. <https://academic.oup.com/cjres/article/11/1/189/4821289>



16. European Commission (2023). Regional Innovation Scoreboard 2023. Publications Office of the EU. https://research-and-innovation.ec.europa.eu/statistics/performance-indicators/regional-innovation-scoreboard_en
17. Abdullaev, A. et al. (2023). Regional Development Index of Uzbekistan: Methodology and Results. Central Asian Economic Review, 5(2), 34-52. <https://caer.uz/en/archive>
18. Kenzhegalieva, K. & Zubarev, A. (2020). Regional Competitiveness in Central Asia: A Cluster Analysis Approach. Post-Communist Economies, 32(8), 1028-1045. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/14631377.2020.1793609>
19. Pike, A., Rodríguez-Pose, A. & Tomaney, J. (2017). Local and Regional Development. Routledge. <https://www.routledge.com/Local-and-Regional-Development/Pike-Rodriguez-Pose-Tomaney/p/book/9781138785717>
20. Huggins, R. & Thompson, P. (2017). Handbook of Regions and Competitiveness. Edward Elgar. <https://www.elgaronline.com/edcollbook/edcoll/9781783475001/9781783475001.xml>
21. Todtling, F. & Trippel, M. (2005). One Size Fits All? Towards a Differentiated Regional Innovation Policy Approach. Research Policy, 34(8), 1203-1219. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0048733305001204>
22. [22] OECD (2020). OECD Regions and Cities at a Glance 2020. OECD Publishing. https://www.oecd.org/en/publications/oecd-regions-and-cities-at-a-glance-2020_959d5ba0-en.html
23. Li, X. & Liu, X. (2005). Foreign Direct Investment and Economic Growth: An Increasingly Endogenous Relationship. World Development, 33(3), 393-407. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0305750X04002006>
24. Fan, S. & Chan-Kang, C. (2008). Regional Road Development, Rural and Urban Poverty. Transport Policy, 15(5), 305-314. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0967070X08000462>
25. Iammarino, S., Rodríguez-Pose, A. & Storper, M. (2019). Regional Inequality in Europe. Journal of Economic Geography, 19(2), 273-298. <https://academic.oup.com/joeg/article/19/2/273/4989828>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
